AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHDA CHAKANA SAVDONING ROLI

[1]Abdullayev Ilyos Sultanovich, [2]Ismoilov Shohjahon O‘tkir o‘g‘li
[1]Iqtisodiyot fanlari doktori professor, [2]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
221-“Iqtisodiyot” guruhi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15974203

Annotatsiya*. Ushbu maqolada aholini ish bilan bandligini ta'minlashda chakana savdoning roli va o‘ziga xos afzalliklari shuningdek mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari va usullari hamda mavjud imkoniyatlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются роль и конкретные преимущества розничной торговли в обеспечении занятости населения, а также направления и методы эффективного использования ее имеющихся возможностей и вопросы совершенствования имеющихся возможностей.*

Annotation. *This article discusses the role and specific advantages of retail trade in ensuring employment of the population, as well as the directions and methods of effective use of its existing opportunities and issues of improving existing opportunities.*

Kalit so‘zlar. *Chakana savdo, aholi bandligi, ish o’rinlari, raqobat, daromad, iqtisodiy rivojlanish.*

Ключевые слова: *розничная торговля, занятость, рабочие места, конкуренция, доход, экономическое развитие.*

Key words: *Retail, employment, jobs, competition, income, economic development.*

Kirish. Bugungi kunga kelib aholi soni ko’payishini inobatga olgan holda shuni oytishimiz mumkun ki aholi bandligini taminlash har bir davlat uchun global muamolardan biri bo’lib hisoblanmoqda. Ishsizlik darajasini kamaytirishda eng samarali va keng qo’llanilib kelayotgan usullardan biri bu chakana savdo hisoblanmoqda , chunki iqtisodiyotning ushbu tarmog’i bir vaxtni o’zida ko’plab fuqorolarni ish bilan taminlash imkonini beradi shu bilan birgalikda doimiy foyda mambaiga sifatida qaraladi. Shu bois chakana savdo nafaqat aholini ish blan taminlab qolmay balki kambag’alchilikni qisqartirishda eng muhum omillaridan biri bo’lib xizmat qiladi. So’ngi yillarda O’zbekiston respublikasida ham aholini bandligini taminlash maqsadida iqtisodiyot tarmoqlaridan keng ravishda foydalanib kelinmoqda asosan chakana savdo turi keng qo’llanilib kelinyotganligini guvohi bo’lishimiz mumkun. Ushbu imkoniyatlardan yanada samaraliroq foydalanish maqsadida mamlakatimizda qator rivojlantirish va takomillashtirish ishlari olib borilmoqda xususan 2024-yil 23-dekabrda imzolangan “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida”gi Prezident farmonida chakana savdoni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi[1]. Ushbu hujjatda viloyat, tuman va shahar hokimliklariga savdo infratuzilmasini kengaytirish, kichik tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlash va shu asosda aholini ish bilan ta’minlash yuzasidan aniq vazifalar yuklatilgan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-apreldagi “Ichki iste’mol bozorida narxlar barqarorligini ta’minlash va chakana savdo faoliyatini rivojlantirishga oid qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida 36 turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bojxona bojlari bekor qilinib, chakana savdo tarmoqlarining iqtisodiy faoliyati rag‘batlantirildi[2]. Bu esa ushbu sohada nafaqat mahsulot ayirboshlash hajmini oshirish, balki yangi ish o‘rinlarini yaratishga ham xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodning ushbu tarmog’i keng ko’lamda foydalanilib kelayotgani bois qator olimlar va iqtisodchilar ushbu soha bo’yicha ko’plab ilmiy izlanishlar olib borishganini guvohi bo’lmoqdamiz. Shu bilan birgalika har bir amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotdan chakana savdo sohasida bor imkoniyatlardan yanada samaraliroq foydalanish va takomillashtirishga katta hissa qo’shib kelmoqda. Quyidagi iqtisodchi va olimlar iqtisodni ushbu sohasini yanada rivojlanishida munosib hissa qo’shib kelayotganligini guvohi bo’lishimiz mumkun, xususan:

1. **Anvar Xabibullaev “Chakana savdo korxonalariga ta’sir etuvchi omillar tahlili”** (2024). Xabibullaev Tashkent davlat iqtisodiyot universitetida chakana savdo sub'yektlarini iqtisodiy, marketing va mehnat omillari nuqtai nazaridan tahlil qiladi[3]. Uning ishlarida elektronnom tijoratning bandlikka ta’siri, xaridor ehtiyojlari va raqamli savdo integratsiyasi muhim o‘rin olgan .

2. **Nigina Sultanova“Chakana savdo xizmatlarining raqobatbardoshligini baholash”** mavzusida o’z ilmiy tadqiqotini olib borgan. Sultanova chakana savdo xizmatlarining sifat va raqobatbardoshligini baholash metodologiyasini ishlab chiqdi[4]. Ushbu modelda u sifat ko‘rsatkichlari va mijozlar qoniqishi asosiy o‘zgaruvchilar sifatida keltirib o’tdi .

3. **Baxrom Karimov o’z** tadqiqotida chakana savdoda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini samaradorligini oshirish metodologiyasi tahlil qilingan. Usul sifatida Kano modeli va mijozlarning talablariga asoslangan yondashuvlarni qo‘llanilgan[5] .

4. **Ilhomjon Yoqubboyev o’z ilmiy** ishida chakana savdo obyektlarini investitsiya nuqtai nazaridan baholashni shu bilan birga infratuzilma va iqtisodiy samaradorlik omillari bilto’g’risida ilmiy ish olib bordi. Bandlik masalasi cheklangan bo‘lsa-da, savdo ob'ektlarining iqtisodiy qiymatiga katta urg‘u qaratilgan[6] .

5. Navbatdagi izlanuvchi ya’ni **Utkir Uzakov “Savdo korxonalarining tutgan o‘rni va hisob yuritish xususiyatlari”loyihasi ustida ilmiy ish olib borgan**. Uzoqov savdo korxonalari faoliyatini analitik sifatida, shu jumladan chakana savdoda bandlik va buxgalteriya hisobini tahlil qilgan[7].

6. **Parvina Xabibulloyeva “2024-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar”** to’g’risida izlanishlar olib borgan. Uning tadqiqoti huquqiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi — jumladan yig‘imlar stavkasi chakana savdoga qanday ta’sir qiladi va bu, o‘z navbatida, bandlikka qanday ta’sir ko‘rsatishini o’z ichiga oladi[8] .

Tahlil va natijalar. Bandlik - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatdir. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo‘yicha shaxslararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda yakka tartibdagi tadbirkorlik, o‘zini ish bilan mustaqil ta’minlash, shaxsiy tomorqa xo‘jaligidagi ishlash, uy xo‘jaligida band bo‘lish va bolalarni parvarishlash bilan shug‘ullanishni ham o‘z ichiga oladi. Bandlik - bu ikki tomon o‘rtasidagi munosabatlar, odatda ish haqi to‘lanadigan shartnoma asosida bir tomon foyda olish uchun, notijorat

tashkilot, kooperativ yoki boshqa tashkilot ish beruvchi, ikkinchisi esa xodimdir. Bandlik odatda mehnat sohasidagi me'yoriy-huquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi.

Chakana savdo – bu tovarlarni yakuniy iste'molchilarga (shaxslar yoki uy xo'jaliklariga) donalab yoki kichik partiyalarda sotish jarayoni. Ya'ni, chakana savdo - bu tovarlarni bozorlarda, do'konlarda, supermarketlarda yoki onlayn-do'konlarda bevosita xaridorlarga sotish faoliyatidir. Chakana savdoning asosiy vazifasi iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Bu biznes faoliyatining muhim turi bo'lib, iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Chakana savdo do'konlar, supermarketlar, bozorlar, onlayn platformalar kabi turli kanallar orqali amalga oshirilishi mumkin. Aholining barqaror turmush kechirishi, ijtimoiy himoyalanganligi va farovonligi ko'p jihatdan ularning mehnat bilan bandligiga bog'liq. Zamonaviy iqtisodiyotda bandlikni oshirishda xizmatlar sohasi, xususan, chakana savdo tarmog'i muhim o'rin tutadi. Ushbu tarmoq nafaqat tovarlar aylanishini ta'minlaydi, balki keng aholini ish bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Chakana savdo va aholini bandligi bu bir biriga chambarchas bog'liq bo'lgan elementlar hisoblanadi.Chakana savdo sohasi bandlikni quyidagi yo'nalishlar orqali ta'minlaydi:

Yangi ish o'rinlari yaratiladi yani do'konlar, marketlar, xizmat ko'rsatish punktlari ochilishi bilan sotuvchilar, kassirlar, omborchilar, kuryerlar, tozalovchilar kabi kasblarga ehtiyoj oshadi.

Yoshlar va ayollar uchun qulay mehnat bozoridir chunki chakana savdo ayniqsa ayollar va yoshlar uchun mos ish o'rinlarini taqdim etadi, shu sababdan u ko'pincha maxsus tajriba yoki oliy ma'lumot talab qilmaydi.

Tadbirkorlikni rivojlantiradi ko'plab odamlar chakana savdoni o'z biznesini boshlash vositasi sifatida ko'radi.Masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari savdosi orqali o'zini ham, boshqalarni ham ish bilan ta'minlaydi.

Norasmiy bandlikni qonuniylashtirishda muhum o'rin tutadi savdo rastalari, kiosklar va onlayn savdo faoliyatini rasmiylashtirish orqali norasmiy ishlovchilarning huquqiy maqomi mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Chakana savdoning tarmoqlararo ta'siri bu chakana savdoni boshqa sohalarda ham ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ladi:

Transport va logistika: Tovarlarni yetkazib berish uchun yuk mashinalari, omborchilar, logistlar kerak bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi: Sabzavot, meva, sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarini chakana savdoga yetkazib beradi.

Axborot texnologiyalari: Onlayn savdo tizimlari va mobil ilovalar dasturchilar va texnik mutaxassislar bandligini oshiradi.

Davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati so'nggi yillarda chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator farmon va qarorlar qabul qildi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

-Savdo infratuzilmasini rivojlantirish;

-Ruxsatnoma va litsenziya tartiblarini soddalashtirish;

-Ayollar va yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar ajratish;

-Mahalliy mahsulotlar savdosini kengaytirish uchun yarmarkalar tashkil etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, chakana savdo sohasi nafaqat iqtisodiyotning muhim tarmog'i, balki aholini ish bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Mazkur soha:

- Ish o‘rinlarini yaratishda yuqori salohiyatga ega;
- Malakali va malakasiz ishchi kuchi uchun keng imkoniyatlar yaratadi;
- Hududiy bandlikni ta’minlashda (ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda) muhim vosita sifatida xizmat qiladi;
- Yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan qatlamlar uchun bandlik imkoniyatlarini oshiradi;

Tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirib, o‘zini o‘zi band qilish darajasini ko‘taradi.

Shuningdek, chakana savdoning zamonaviy shakllari – internet savdosi, mobil ilovalar orqali savdo, franchayzing kabi yo‘nalishlar orqali bandlikning yangi formatlari shakllanmoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanish bilan birga aholining daromadlarini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida chakana savdo sohasini yanada rivojlantirish orqali mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish hamda aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**. (2023). *Iste’mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida* [Prezident farmoni, 2023-yil 8-aprel]. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**. (2024*). Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida* [Prezident farmoni, 2024-yil 23-dekabr]. Prezident rasmiy sayti. https://president.uz
3. Xabibullaev A. (2024). Chakana savdo korxonalariga ta’sir etuvchi omillar tahlili. TDIU. Elektron manbalar: herald.kokanduni.uz, sci-p.uz, cyberleninka.ru.
4. Sultanova N. (2023). Chakana savdo xizmatlarining raqobatbardoshligini baholash. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, CEDR portali. Elektron manbalar: cedr.tsue.uz, sci-p.uz.
5. Karimov B. (2023). Chakana savdo tarmoqlarida ko‘rsatiladigan xizmatlar samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Manbalar: cedr.tsue.uz, sci-p.uz.
6. Yoqubboyev I. (2024). Chakana savdo obyekti qiymatini baholashning nazariy asoslari va turlari. Herald Kokand University, Ilmiy Tadqiqot, CEDR TSUE, OJS Renaissance. Elektron manbalar: herald.kokanduni.uz, ilmiytadqiqot.uz, cedr.tsue.uz, ojs.renaissance.com.uz.
7. Uzakov U. (2024). Savdo korxonalarining tutgan o‘rni va hisob yuritish xususiyatlari. SCI-P ilmiy platformasi, Best Publication. Elektron manbalar: sci-p.uz, bestpublication.org.
8. Xabibulloyeva P. (2025). 2024 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar. CyberLeninka, OJS Renaissance, Best Publication. Elektron manbalar: cyberleninka.ru, ojs.renaissance.com.uz, bestpublication.org.